

**“ASRGA TATIGULIK KUN” ASARINING YOSHLAR ORASIDAGI TARBIYAVIY
AHAMIYATI.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7882898>

Pinazarova Jasmina Bahodir qizi

BuxDUPI tillar fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Maqolada Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” asarining yoshlар orasidagi tarbiyaviy ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Chingiz Aytmatov, Asrga tatigulik kun, tarbiya, Bo'ronli Edigey, manqurt, Jo'lamon, Kazangap, Nayman ona, insoniylik.*

“Asrga tatigulik kun” asarining muallifi Chingiz Aytmatovdir. Aytmatov Chingiz To'raqulovich XX asr qirg'iz adabiyotining eng iste'dodli va jahonga tanilgan yirik namoyondalaridan biri bo'lib, u 1928-yil 12-dekabrda Qirg'izistonning Talas vodiysidagi Shakar ovulida dunyoga kelgan. Bobosi Aytmat og'a ajoyib qo'buzchi, otasi To'raqul Aytmatov davlat va jamoat arbobi, onasi Naima opa o'qimishli, oqila ayol edi. Chingiz dastlab rus mакtabida, keyin qirg'iz maktabida o'qidi, qishloq sho'rosida kotib, soliq yig'uvchi, brigada hisobchisi bo'lib ishladi. U 1948-yilda Jambul zooveterinariya texnikumini, 1953-yili Qirg'iziston qishloq xo'jalik institutini tamomlagan. Tarbiya shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlari ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'rildigan chora tadbirlar yig'indisi. Tarbiya insoniylikni ta'minlaydigan eng qadirli va abadiy qadriyatdir. Pedagogik adabiyotlarda “Tarbiya” atamasi keng ma'noda ishlataladi. Tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini anglatadi.

Xurshid Davron fikri: “ Men ham turk dunyosining buyuk insoni, atoqli adib Chingiz Aytmatov bilan uchrashgan, suhbatlashgan, odamlardan biriman. O'shanda 1991-yil Chingiz Aytmatov Turkiston xalqlari assambleyasi raisi sifatida Toshkentga kelgan, o'sha yillar Shelkovichnaya deb atalgan ko'chada joylashgan mehmonxonada joylashgan edi. Chingiz Aytmatov bilan meni atoqli adibimiz Odil Yoqubov tanishtirgan, tanishtirganda ham osmonga ko'tarib, maqtab tanishtirgan edi. “ Bu bola Temur bilan Ulug'bekning nabirasi! ” – degan edi Odil aka bahomni oshirib. O'sha kuni taniqli qozoq dramaturgi, Chingiz og'a bilan ham mualliflikda pyesa yozgan Kaltay Muxametjanov bilan ham tanishgan edim. Mehmonxonaga meni Odil aka taklif qilgan edi. Nima uchun taklif qilgani alohida bir hikoya. Vaqt soati bilan uni yozish o'y-rejamda bor⁷⁶.

⁷⁶ www.kh-davron.uz

“Buyuk adib va jamoat arbobi Chingiz Aytmatov nafaqat qirg’iz eli, ayni paytda, butun turkiy mamlakatlar, jumladan, O’zbek xalqi uchun ham aziz va qadrli siymo, O’zbekistonning ulkan do’sti edi”, -deyiladi davlatimiz rahbarining qarorida.

Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” romani 1980-yilda yozilgan. Asar chop etilishi bilan o’quvchilar tafakkuri va ruhiyatini larzaga keltirdi. Chunki unda odamning insoniy qiyofasini belgilaydigan asosiy ko’rsatkichlar o’zlikni anglash, o’zgani tushunish, tarixiy ildizlarni bilish, undan faxrlanish singari tushunchalar ekanligi ko’rsatiladi. Asarda bu masalalar aniq odamlar taqdiri misolida badiiy ifoda etilgan edi. Holbuki, bunday xususiyat sho’ro adabiyoti uchun tamomila begona hisoblanardi.

Chingiz Aytmatov ulkan san’atkorgina emas, balki jasur inson ham bo’lgani uchun ana shunday vaqtida odamiylik odamlikdan baland ekanligini, kechagi kunini eslamaydigan, bobolarning udumlari bilan faxrlanmaydigan, ularga amal qilmaydigan kimsalar na oti van a zotini biladigan manqurtdan farq qilmasligini Sobitjon va Jo’lamon timsollari misolida juda ta’sirli namoyon qiladi.

Ko’nglining eng tubidagi yuksak tuyg’ular ifoda etilgan bu romanga X asrda yashab o’tgan arman yozuvchisi Grigor Narikatisining “Musibatnoma” kitobidan “Bu kitob jism-u fig’onimdir mening, Bu kalom jon-u jahonimdir mening” satrlarining epigrif qilib olinishida ham teran ma’no bor. Chingiz Aytmatov uchun ham bu roman jon-u jahonning o’zi edi. Haqiqatdan jahonga mashhur yozuvchining dilidagi oh_u fig’oni, jonini o’rtagan dardlari, alamlari bayonidir. Kitobda odam degan mavjudotning azizligi, uni tarixiy ildizlaridan, tilidan, g’ururidan mahrum qilish joniga qasd etishdan ham dahshatli jinoyat ekan. Nayman onaning tengsiz fojiasi asosida aks ettirilgan⁷⁷.

Chingiz Aytmatovning buyuk yozuvchiligi shundaki, siyosatdan tamomila chetda turuvchi, siyosiy muammolar hal qilinadigan joylardan minglab chaqirim yuqoridan umr kechiruvchi kamtargina odam ham aslida siyosatning ta’siridan holi bo’lolmasligini Bo’ronli Edigey misolida juda ishonarli aks ettirgan. Edigey kechagi kunini unitmagan, bobolar amal qilgan yuksak udumlar asosida yashashga o’zida kuch topa oladigan chin insondir. Uning ezgu insoniy sifatlari qiyinchiliklarga qaramay marhum Kazangapning vasiyatini bajarishga o’zida kuch topganida, qanchalik g’azablanmasin, o’lik bor joyda janjallahmaslikka qudrati yetganida, Sobitjonning gapso’zlariga munosabatida yaqqol ko’rinadi.

Ezgu insoniy tuyg’ulardan mahrum, odamning ko’nglini his etmaydigan, bobolar qo’llagan udumlarni mensimaydigan, kechagi kunidan uzilgan, ammo o’zini ilg’or fikrli, ziyoli hisoblaydigan Sobitjon manqurtning zamonaviy va xavfli nusxasi ekanligi ham juda ta’sirli ko’rsatilgan.

Kazangapni dafn etish marosimida, marhum bilan vidolashuv onlarida, allohga munojat qilgan o’rninda tasvirida Edigey tabiatiga xos yuksak insoniy xususiyatlar namoyon bo’lgan. Xullas, bu roman odamning odamligini ta’minlab turadigan asosiy

⁷⁷ uz.m.wikipedia.org

qadriyatlar haqida dard bilan bitilgan o'lmas asardir. O'tmishda milliy va ma'naviy ezilgan xalqlar «Oktyabr revolutsiyasi» tufayli mangu ozodlikka chiqdi. Barcha sohalarda bo'lgani kabi mamlakatimiz xalqlarining shaklan milliy, mazmunan sotsialistik adabiyoti va san'ati ham ravnaq topdi. O'tmishda o'z yozushi va yozma adabiyotiga ega bo'limgan kichik xalqlar ham mustaqil katta adabiyot yaratib, jahonning ilg'or xalqlari adabiyoti bilan bellasha oladigan yuksaklikga ko'tarildi.

“Asrni qaritgan kun”ning birinchi qismi “Bo'ronli bekat” dastlab o'zbek tiliga “Yoshlik jurnalining 1986-yil 1-4-qismlarida “Kunda” nomi ostida “Sharq yulduzi” jurnalining 1987-yil 8-10-sonlarida Asil Rashidov hamda Ibrohim G'afurov tarjimalarida bosib chiqilgan edi. Kitobsevarlarning taklifiga binoan tez orada to'liq kitob tarjima qilinadi. Asarning o'zbek tilidagi tarjimasi asosida o'zbek kitobxonini bevosita o'ziga qardosh bo'lgan xalqning buyuk farzandining buyuk asari bilan tanishish, uning ko'nglidagi og'riqlarni bilish imkoniga ega bo'ldi. Asarning asl nusxasiga nazar tashlaydigan bo'lsak o'quvchi bundan tarjimadan topganchalik ma'naviy ozuqa topolmasligi mumkin. Ammo asar tarjimasi o'zbek kitobxonini bir muncha vijdon azobida qiynashi, o'ylantirishi aniq. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak asar yuksak did, e'tibor va chinakam mahorat bilan yozilgan.

Chingiz Aytmatov o'z asarlarida oddiy mehnat kishilarishi, chorvadorlar, dengizchilar, ziyolilarning obrazlarini gavdalantiradi. Ammo jamiyat faqat shulardangina iborat emas. Atrofimizda oddiy temiryo'lchi bilan birga dangasalar, o'z mehnati bilan kun kechiradigan dehqon, yuk tashuvchi, kosib, paxtakor, oshpaz, nonvoy bilan yonma-yon kasb-korining tayini bo'limgan fosiq aroqxo'r, firibgar muttaham, tovlamachilar ham “yetarlicha” topiladi. Bularni aytmasdan o'tib bo'lmaydi. Bularning o'z amallari, o'z nuqtai nazarlari va manfaatlari bor. Adib odamlarni mehnatkash yoki dangasa tanballarga ajratmaydi. U insonlarning qanday din, qanday mazhab, qanday siyosiy-partiya vakili bo'lganidan qat'iy nazar, shavqatli va shavqatsiz, insofli va insofsiz, aqli va nodon insonlarni o'z romanida yorqin aks ettiradi. Boshqacha qilib aytganda, insonga u shunchaki odam bo'lganligiga emas, balki insoniy mohiyatiga qarab hukm chiqaradi. Adibning asarlarining o'ziga xos yana bir jihat shundan iboratki, asrlarida kitobxonni zeriktiradigan ma'nosiz oldi-qochdilik uchramasligidir.

“Asrga tatigulik kun” asarida voqealar asosan Sario'zak cho'lida, Bo'ronli temir yo'l bekatida bo'lib o'tadi. Gap butun ongli hayotini bekatda oddiy temiryo'lchi bo'lib o'tkazgan Kazangapning o'limidan so'ng dafn etish taraddutlari voqealarini bilan boshlanib, asarning nihoyasida dafn musibat ustiga musibat bilan yakun topadi. Shu orada Kazangap bilan Edigey Bo'ronning hayoti, ularga chambarchas bog'liq yoki bog'liq bo'limgan holatda Tinch okeani tepasida Sovet-Amerika “Paritet” kosmik kemasining parvozi bilan bog'liq voqealar, Ona Bayit qabristoni, Nayman ona va uning baxtsiz o'g'li Jo'lamon, maktab muallimi Abutolib Quttiboyev, uning sadoqatli ayoli Zarifa va bolalarining boshiga kelgan falokatlar hikoya qilinadi. Chingiz Aytmatov barcha asarlarida o'z usul, uslub va tadbirlariga sodiq qoladi: ularda aniq hayotiy

hodisalar tasviri bilan turli-xil rivoyat va afsonalar bir-biriga qo'shilib-chatishib ketadi. Tulki, bo'ri, it, tuya, ot, kalhat, baliq, singari xonaki va yirtqich hayvonlar, jonivorlar ham o'ziga xos "adabiy personajlar" bo'lib gavdalanadi. Chingiz Aytmatov romanlarida, mavzu va uslub rang-barangligi ichra real hayot, qirg'iz turmush hayotining tasviri qayerdan boshlanadi-yu hayratomus afsona va hikoya qayerda tugashini aniqlash qiyin. Aytaylik, Kazangapni Bo'ronli bekatidan o'ttiz chaqirimcha narida joylashgan Ona Bayit qabristonida dafn etishga undagan aniq sabablar va marosim bilan mazkur qabristonga asos solgan Nayman ona bilan qirg'iz elining raqiblari junjanglar tomonidan manqurtga aylantirilgan farzandi o'rtasida fojiona tugagan qonli voqeа ya'ni onaning o'z o'g'li qo'lida shavqatsizlarcha o'ldirilishi haqidagi rivoyat bugungi qozoq hayotida kechayotgan boshqa bir real voqeа bilan chambarchas bog'lanadi. Kosmadrom hududida joylashgan Ona Bayit qabristonidan Kazangapga go'r qazish ikki metr joy topilmaydi. Bu naqadar achinarli holat. Kazangap juda ham mehnatkash, insofli, halol inson o'z umrini vatan va xalq xizmati, baxtsaodati yo'liga tikkan halol mehnatkash kishining jasadiga "o'n bir qarich" joy berilmaydi.

Bundan tashqari Bo'ronli bekatidagi ikki xonodonning hayot yo'lini va undagi insonlarni butun boshlik bir romanga asos qilib bergan. Adib inson zoti sharifini, xilma-xil holatlarda, turli vaziyatlarda, qiyin holatlarda, fojia ichida olib qaraydi. Chingiz Aytmatov insonni eng ulug' va murakkab zot deb talqin qiladi. Otasi Kazangapni Sobitjon tirikligida shod va xursand qila olmaydi, o'lganda ham otasini qabrini obod qilolmaydi. Bir so'z bilan aytganda, farzandlik burchini ado eta olmaydi. Buni bilgan Edigey juda ham g'azablanadi va Sobitjonga nafrat ko'zi bilan boqar edi. Romanda turli xil insonlar va qiziqarli voqealar yaratilgan. Har bir qahramonning o'z dunyosi, xulq-atvori, o'y fikrlari juda tushunarli, sodda va mahorat bilan ochib berilgan. Romanda ayniqsa Nayman ona bilan uning manqurt qilingan o'g'li haqidagi rivoyat nihoyatda ta'sirchan, davr fojialarini o'zida aniq-tiniq ifodalashishi bilan jozibali va unutilmas.

"Manqurt" so'zi ko'chma ma'noda o'z tarixini, o'z naslini, o'zining tomirlarini unutgan kishiga nisbatan ishlataladi. Manqurt so'zi publisistikaga urf bo'lgan laqabga, o'z qadriyatlarini, o'zining naslini, o'zilagini unutgan, yo'qotgan odamning ramziga aylanib qoldi.

Shu so'zdan olingan manqurtlik atamasi ham muomalaga kirib qoldi. Bu atama ayniqsa Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tatariston, Boshqirdistonda o'z milliy madaniyatiga beparvo bo'lganlar uchun haqoratli laqabga aylandi.

Asarni o'qigan har bir inson o'ziga turli xil taasurotlar oladi. Asar kitobxonlarning qalbidan o'zgacha bir joy olgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Chingiz Aytmatovning bu romani 1980-yilda yozilgan. Asarda odamning insoniy qiyofasini belgilaydigan asosiy ko'rsatkichlar: o'zlikni anglash, tarixiy ildizlarni bilish, undan faxrlanish singari tushunchalar ekanligi va bulardan ayrilish, mohiyatiga ko'ra, odamlik qiyofasini yo'qotish ekani ko'rsatilgandi. Holbuki, bunday xususiyat o'sha davr adabiyoti uchun

begona hisoblanardi. Romanda odam degan yaratiqning azizligi, uni tarixiy ildizlaridan, tilidan, elidan, g'ururidan mahrum qilish joniga qasd etishdan ham dahshatli jinoyat ekani yovqur Nayman onanaing tengsiz fojiasi tasviri asosida aks ettirilgan.

Chingiz Aytmatovning buyuk yozuvchiligi shundaki, u Bo'ronli Edigey taqdiri misolida siyosatdan tamomila chetda turuvchi, bunday muammolar hal qilinadigan joylardan minglab chaqirim yiroqda umr kechiruvchi kamtargina odam ham, aslida siyosatning ta'siridan xoli bo'lolmasligini juda ishonarli aks ettirgan. Edigey kechagi kunini unutmagan, bobolar amal qilgan yuksak udumlar asosida yashashga o'zida kuch topa oladigan chin insondir.

Ma'lumotli bo'lsa-da, ezgu insoniy tuyg'ulardan mahrum, odamning ko'nglini his etmaydigan, bobolarining udumlarini mensimaydigan Sobitjon manqurtning zamonaviy va xavfli nusxasi ekanligi asarda juda ta'sirli ko'rsatilgan.

Kazangapni dafn etish jarayonida, marhum bilan vidolashuv onlarida Allohga munojat qilgan o'rirlari tasvirida Edigey tabiatiga xos yuksak insoniy xususiyatlar namoyon bo'lgan. Xullas, bu roman insoniy qadriyatlar haqida dard bilan bitilgan o'lmas asardir. Asarni mashhur tarjimon Asil Rashidov o'zbek tiliga o'girgan. Roman millatidan qat'iy nazar har bir kishiga yaqin va tushunarli. Romanda ko'pchilikka tanish ruhiy holatlarni aks ettirgani bilan e'tiborga loyiq. Bu roman juda ham axloqiy va tarbiyaviy asardir. Asarning voqealari juda ham qiziqarli qilib yoritib berilgan kitoxon o'quvchi yoshlarning fikru o'y xayollarini tubdan o'zgartira oladigan asardir. Asarni o'qigan har bir kitobxonda asarga nisbatan o'zgacha bir iliq va ijobiy fikrlar paydo bo'ladi⁷⁸.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1) Y.Qozoqboyev V.Qodirov. Adabiyot, -T.: O'qituvchi, 2019-yil. 356-357 betlar.
- 2) www.kh-davron.uz
- 3) www.uz.m.wikipedia.org
- 4) <https://www.xabar.uz.madaniyat>

⁷⁸ Y.Qozoqboyev V.Qodirov. Adabiyot, -T.: O'qituvchi, 2019-yil. 356-357 betlar.